

INSON QADRINI OSHIRISHDA IJTIMOY REABILITATSIYANING O'RNI

G'ulomjon Isoqov

IIV Akademiyasi 312-guruh kursanti

ANNOTATSIYA

Mamlakatimiz har tomonlama rivojlanishi uchun o'sib borayotgan yoshlar ma'nan hamda jismonan sog'lom bo'lishlari lozim. Bu borada oilaviy muhitni yaxshilash va zo'rovonlikni oldini olish eng asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Maqola yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy reabilitatsiya jarayonlari uning aholi hayot tarzini yaxshilashdagi ahamiyati xususida.

KALIT SO'ZLAR: reabilitatsiya, zo'ravonlik, jamoatchilik fikri, nizoli vaziyat, shaxsiy daxlsizlik

Mamlakatimizda fuqarolarning erkinlik va shaxsiy daxlsizlikka doir huquqlarini ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Odamlarga o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun to'la shart-sharoitlar yaratilgan. Jamiyat manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlaydigan sud-huquq tizimi samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, jamiyatning poydevori sifatida oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oila manfaatlarini himoya qilishning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini kuchaytirish, uning xavfsizligini va uyg'unligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ko'rilgan choralar xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlariga shak-shubhasiz rioya qilish, ma'naviy-axloqiy asoslarni va oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash uchun poydevor yaratdi¹. Respublika og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan jismoniy, axloqiy yoki mulkiy zarar yetkazish natijasida sodir etilgan huquqbuzarliklar tufayli jabr ko'rgan shaxslarga ko'maklashish va har tomonlama yordam ko'rsatish bo'yicha infratuzilmani yaratish alohida ahamiyatga ega edi.

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2.07.2018 йилдаги “Ижтимоий реабилитация қилиш ва мослаштириш, шунингдек, oilaviy-ma'naviy z'urlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги [ПҚ-3827](#)-сон қарори



Shu sababli, Prezidentimizning 2018 yil 2 iyulda «Ijtimoiy reabilitasiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zoʻrlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan ijtimoiy reabilitasiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zoʻrlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirishning 6 ta ustuvor yoʻnalishlari belgilanib, amaliy chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi.

Eʼtiborli jihati, qaror bilan zoʻrlik ishlatishdan jabr koʻrgan shaxslarni reabilitasiya qilish va moslashtirish hamda oʻz joniga qasd qilishning oldini olish respublika markazi ham tashkil etilib, uning asosiy vazifalari va faoliyati yoʻnalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- birinchidan, ogʻir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan, oilaviy muammolar va turmushida zoʻrlik ishlatilishiga duch kelgan shaxslarga anonim tarzda shoshilinch tibbiy, ruhiy, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy va boshqa yordam koʻrsatish;
- ikkinchidan, oʻz joniga qasd qilishga moyil boʻlgan yoki oʻz joniga qasd qilgan shaxslar bilan birlamchi va izchil profilaktika tadbirlarini oʻtkazish;
- uchinchidan, nizoli vaziyatlarni, oilaviy-maishiy zoʻrlik ishlatish holatlarini va oʻz joniga qasd qilishga moyil xulq-atvorni erta bartaraf etish maqsadida davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qilish organlari, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolar bilan oʻzaro samarali hamkorlik oʻrnatish;
- toʻrtinchidan, ijtimoiy reabilitasiya qilish va moslashtirish boʻyicha hududiy davlat va nodavlat muassasalarining faoliyatini tashkil etishda, ularning moddiy-texnik va uslubiy bazasini mustahkamlashda, mazkur muassasalarning kadrlar salohiyatini shakllantirish va qoʻllab-quvvatlashda, muhtoj shaxslarga, shu jumladan «ishonch telefoni» orqali maslahat berish tizimini yaratish va uning faoliyatini yoʻlga qoʻyishda koʻmaklashish;
- beshinchidan, dolzarb ijtimoiy muammolarni aniqlash maqsadida vaqti-vaqti bilan jamoatchilik fikrini oʻrganish asosida nizoli vaziyatlarni, oilaviy-maishiy zoʻrlik ishlatish va oʻz joniga qasd qilishga moyil xulq-atvorni bartaraf etishga doir dasturlar va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- oltinchidan, nizoli vaziyatlarni, oilaviy-maishiy zoʻrlik ishlatishni va oʻz joniga qasd qilishga moyil xulq-atvorni, ularning kelib chiqish sabablari tahlil qilish hamda umumlashtirish, axborot-tahliliy materiallarni, shu jumladan,



ommaviy axborot vositalarida va internet tarmog'ida tarqatish orqali ushbu sohadagi muammolar haqida jamoatchilikning xabardor etilishini ta'minlash;

- yettinchidan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qilish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari xodimlari uchun nizoli vaziyatlarni, oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishni va o'z joniga qasd qilishga moyil xulq-atvorni bartaraf etish masalalariga bag'ishlangan amaliyotlar, seminar va treninglar o'tkazish.

- Alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda oiladagi zo'ravonlikning oldini olish tizimini takomillashtirish bo'yicha sakkizta normativ-huquqiy hujjat, ya'ni 2 ta qonun, 1 ta Prezident qarori va 5 ta Hukumat qarori qabul qilindi. 2021 yil 9 dekabrda «Og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan xotin-qizlar huquqlari kafolatlarini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish to'g'risida»gi qonun shulardan biridir.

Qonun bilan «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi, «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi hamda «Aholini ro'yxatga olish to'g'risida»gi qonunlarga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritildi. Natijada 2019 yilda «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi Qonun bilan asos solingan me'yoriy-huquqiy baza yanada takomillashdi.

Mazkur hujjat xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoyalashga jalb etilgan tuzilma va idoralarning vazifalarini aniqlashtirib, ularning o'zaro muvofiqlashgan faoliyatini takomillashtirishga zamin hozirladi. Unda nazarda tutilgan eng muhim o'zgarishlardan biri – fuqarolar yig'inlarining vakolatlari kengaytirilishi bo'ldi. Jumladan, fuqarolar yig'inining tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarni himoya qilishga doir chora-tadbirlarni belgilash, shuningdek, ayollarni rehabilitasiya qilish va moslashtirish markazlarini hamda ichki ishlar organlarini mazkur faktlar to'g'risida zudlik bilan xabardor qilish vakolati belgilandi.

Bu juda muhim. Chunki ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlari ko'proq oilada qayd etiladi, oila esa mahallaning bir qismi. Vaholanki, taraqqiyot har soniyada ilgari lab borayotgan bugungi davrda ham o'zbek jamiyatida mahallaning ta'sir kuchi ortsa ortdiki, aslo yo'qolgani yo'q. Qolaversa, zo'ravonlikka qo'l urgan



shaxs va bunday holatlar qayd etilgan oila, hattoki ularning ajdodlari haqida ham aynan mahalla fuqarolar yig'inarida ishonchli ma'lumotlar bo'ladi.

Foydalanilga adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2.07.2018 yildagi "Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3827-son qarori
2. Buxoro davlat universiteti.uz sayti
3. Ziyo.net

